

“TIBBIYOT GULSHANI” GAZETASI TAHRIRIYATI

Andijon davlat tibbiyot instituti tasarrufidagi “Tibbiyot gulshani” gazetasi 50 yoshni qarshiladi. Viloyatimiz tibbiyotchilarining nashri bo‘lgan ushbu gazeta 1967- yil 24- iyunda “Medik” nomi bilan rus va o‘zbek tillarida chop etila boshlagan. Gazeta o‘sha vaqtda faqat Andijon davlat meditsina instituti nashri sifatida tashkil etilib, Moskva shahrida ro‘yxatdan o‘tgan.

Gazetaning tashkil etilishida o‘sha davrdagi institut rektori, professor Yusuf Otabekov va taniqli jurnalist To‘lqin Rasulovlarning xizmatlari katta bo‘ldi. Institut rektorati va professor-o‘qituvchilari oliygohning ilmiy salohiyatini ko‘tarish, ilmiy yo‘nalishdagi izlanishlar samaralarini matbuotda keng yoritish bilan o‘z nufuzini oshirish va tarix zarvaraqalarida qolish borasida bosma ommaviy axborot vositasining o‘rni katta ekanligini e‘tirof etdi va gazetaga asos solindi. Faxriylarning xotirlashicha, gazetani ro‘yxatdan o‘tkazish va tashkil etish osonlikcha ro‘yobga chiqmadi. Albatta, katta mehnat, izlanish va urinishlar evaziga yangi nashr dunyo yuzini ko‘rdi. Institutning izlanuvchan va talabchan jamoasi va ularning e‘tibori tufayli gazeta asta-sekin shakllanib bordi. Dastlab “Medik”, keyinchalik “Shifokor”, nomlari bilan chop etilgan gazeta 1997 yildan “Tibbiyot gulshani” nomi bilan chop etila boshlagan.



Ilmiy-ommabop, siyosiy-ijtimoiy, ma'naviy-ma'rifiy nashr bo‘lgan – “Tibbiyot gulshani” gazetasi 2006- yil 30- dekabrda viloyat matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan ro‘yxatdan o‘tgan. Shu davrdan boshlab gazeta Andijon davlat tibbiyot instituti hamda viloyat sog‘liqni saqlash boshqarmasi muassisligida chop etilib kelinmoqda. Gazeta bu jihatdan respublikamizda yagona nashr hisoblanib, sog‘liqni saqlash boshqarmasi tasarrufidagi tibbiyot muassasalariga ularning nashri sifatida yetib

boradi. Boshqa tibbiyot oliy o'quv yurtlari gazetalari esa, faqat institut miqyosida tarqaladigan axborotnoma sifatida chop etiladi. Bugungi kunda gazeta yiliga o'rtacha 70 ming 236 nusxada chop etilib, muxlislariga yetkazib berilmoqda.

Gazetaga uzoq yillar To'liqin Rasulov, keyinchalik professor Odiljon Salohiddinov so'ngra Ergash Dadaxo'jaev kabi salohiyatli ustozlar muharrirlik qilishgan. Gazetada tibbiyot yo'nalishida yangiliklar, axborotlar, sohaga doir qonun hujjatlari, shuningdek, professor-o'qituvchilar, shifokorlar va talabalarning erishgan yutuqlari, ularning ilmiy, innovatsion faoliyati haqida ma'naviy-ma'rifiy ahamiyatga ega bo'lgan maqola va ijodiy ishlari yoritib boriladi.



Hozirgi kunda gazeta 3863 nusxada, A-3 formatda, 4 sahifa hajmda, 4 bo'yoqda nashr etilib, gazetxonlar e'tiboriga havola etib kelinmoqda.

Gazetaga jurnalist Ra'noxon Hayitboeva muharrirlik qiladi. Gazeta jamoasi 7 kishidan iborat bo'lib, 3 nafar ijodiy xodim va 4 nafar texnik xodim faoliyat ko'rsatadi. Ular Dilafuz Sultonova (muxbir), Mahliyo Otamirzaeva (muxbir), Yulduzxon Valieva (hisobchi), Gulmira Najmitdinova (sahifalovchi-dizayner), Odiljon O'roqov (fotomuxbir) va Mansurbek Parpievlar (sahifalovchi) bo'lib, gazetaga materiallar tayyorlash, suratga olish, sahifalash, bosmaxonaga yuborib, chop ettirish va tarqatishgacha bo'lgan jarayonlarda qatnashadilar.

Tahririyat jamoasi 2016- yili "Sog'lom ona, sog'lom dilbandlar – buyuk davlatimiz yutug'i" nomli grant loyihasining g'olibi bo'lib, muhim ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan qator tadbirlar o'tkazdi, mavzuni gazeta sahifalarida keng yoritib, loyihani

muvaffaqiyatli amalga oshirdi. Endilikda gazeta jamoasi turli ijodiy tanlovlar va loyihalar ustida izlanishlar olib bormoqda. 2017 yili ijodiy jamoa gazeta tashkil etilganligining 50 yilligi munosabati bilan viloyat hokimligining “Faxriy yorlig‘i” bilan taqdirlangan.

“Tibbiyot gulshani” gazetasi ADTI ma’naviyat – ma’rifat va iqtidorli yoshlar bilan ishlash bo‘limi, institut xodimlar kasaba uyushma qo‘mitasi bilan hamkorlikda tadbirlar o‘tkazib, institut gazetasi va veb-saytida muntazam yoritib kelmoqda. Gazeta ilmiy-ommabop, siyosiy-ijtimoiy va ma’naviy-ma’rifiy yo‘nalishdagi nashr sifatida institut hayotida o‘ziga xos tarixiy iz qoldirmoqda.